

Kimyo — 50 ta test savoli

Javoblari va izohlari bilan · DTM tayyorgarligi · testmakon.uz · 25.08.2026

1. Metall kationi va sulfat anionidan tarkib topgan tuz tarkibida massa jihatidan 32,4% metall, 22,53% oltingugurt va 45,07% kislorod saqlaydi. Metallni aniqlang

- A) Fe
- B) K
- C) Na
- D) Ca

2. Markaziy atomi sp^3 - tipda gibridlangan, qutbli kovalent bog'lanishli qutbsiz molekulani aniqlang.

- A) SF_4
- B) NH_3
- C) H_2O
- D) CCl_4

3. Laboratoriyada 4 ta (1 dan 4 gacha raqamlangan) probirkalarda 4 xil moddaning alohida - alohida eritmalari mavjud. Moddalar: I) Bariy nitrat eritmasi; II) Ammoniy xlorid eritmasi; III) Nitrat kislotaning eritmasi (suyul); IV) Natriy gidroksid eritmasi. Quyidagilar ma'lum bo'lsa: a) № 2 va № 4 probirkadagi moddalar bir-birini neytrallaydi; b) № 3 va № 4 probirkadagi moddalar o'zaro ta'sirlashib, o'tkir hidli (n,sh) tibbiyotda qo'llaniladigan gaz hosil qiladi. № 1 da qanday modda eritmasi mavjudligini aniqlang.

- A) NH_4Cl
- B) HNO_3
- C) $Ba(NO_3)_2$
- D) $NaOH$

4. IIA guruhga kiruvchi metall oksidi namunasida atomlar soni 3,01·10²¹ ga teng. Oksid tarkibida kislorod massa ulushi metallnikidan katta bo'lsa, oksid namunasining massasini hisoblang. Oksidni aniqlang.

- A) 0,0625 g, CaO
- B) 0,0625 g, MgO
- C) 0,625 g, BeO
- D) 0,0625 g, BeO

5. 17,1 g maltozaning gidrolizlanishidan olingan glukoza spirtli bijg'itildi. Hosil bo'lgan gaz 0,5 M li 400 ml natriy gidroksid eritmasiga yuttirilganda necha gramm tuz hosil bo'ladi?

- A) 21,2
- B) 8,4
- C) 10,6
- D) 16,8

6. O'rtacha tezligi 0,2 mol/(l·s) ni tashkil etuvchi reaksiyada 20 sekunddan keyin modda konsentratsiyasi 2 mol/l ga teng bo'lib qoldi. Moddaning boshlang'ich konsentratsiyasini (mol/l) aniqlang ($V=1$ litr).

- A) 12
- B) 8
- C) 4
- D) 6

Kimyo — 50 ta test savoli

Javoblari va izohlari bilan · DTM tayyorgarligi · testmakon.uz · 25.08.2026

7. $\text{Cu} + \text{H}^+ + \text{NO}_3^- \rightarrow \text{Cu}^{2+} + \text{NO} + \text{H}_2\text{O}$ reaksiya tenglamasiga ko'ra qaytarilish mahsulotini ko'rsating.

- A) Cu
- B) NO_3^-
- C) NO
- D) Cu^{2+}

8. 7,5 gr azot oksidi tarkibida 0,25 NA ta molekula saqlasa, oksid tarkibidagi azotning oksidlanish darajasini aniqlang.

- A) +4
- B) +3
- C) +2
- D) +1

9. Qaysi atomning nuklonlarini 45 % ni p lar tashkil etadi.

- A) O
- B) Ca
- C) Ar
- D) Fe

10. Elementning oksidlanish darajasi +5 bo'lganda, elektronlar soni 30 ta bo'lsa, uning nuklonlar (p,n) sonini elektronlar soniga nisbatini aniqlang.

- A) 8 : 4,5
- B) 8:3
- C) 35 : 35
- D) 2.4 : 1.05

11. Neytral atomda barcha zarrachalarning yig'indisi 82 ga teng. Neytronlar soni pratonlar sonidan 4 taga ko'p bo'lsa, elementni aniqlang.

- A) Cr
- B) S
- C) Al
- D) Fe

12. X^{+2} ionining elektronlar soni Ni atomining elektronlar soniga teng bo'lsa, X elementni aniqlang.

- A) Cr
- B) Mn
- C) Fe
- D) Zn

13. $4\text{Al} + 3\text{O}_2 = 2\text{Al}_2\text{O}_3 + 3240\text{ kJ}$ Yuqoridagi reaksiyadan 1620 kJ issiqlik ajralsa, reaksiya uchun olingan kislorodning miqdorini (mol) aniqlang.?

- A) 1
- B) 2
- C) 0,5
- D) 1,5

Kimyo — 50 ta test savoli

Javoblari va izohlari bilan · DTM tayyorgarligi · testmakon.uz · 25.08.2026

14. Elektron konfiguratsiya ...3s²3p³ bo'lgan elementning eng quyi oksidlanish darajasini aniqlang.?

- A) -3
- B) +5
- C) +3
- D) -1

15. 0,8 mol moddaning og'irligi 128 g ga teng bo'lsa, ushbu moddaning molar massasini (g/mol) aniqlang.

- A) 100
- B) 74
- C) 80
- D) 160

16. Temirdan yasalgan plastinka dastlab xlorid kislota eritmasida eritilishi natijasida 0,375 mol gaz ajraldi. Plastinka chiqarib olinib kumush nitrat eritmasiga tushirildi. Ikkala jarayon oxirida plastinka massasi 11 g ga ortdi. Plastinkaga o'tirgan kumush massasini (g) aniqlang.

- A) 10,8
- B) 86,4
- C) 21,6
- D) 43,2

17. 1 mol 1-xlorbutanga KOH ning spirtidagi eritmasi ta'sir ettirilganda 22,4 g alken olindi. Reaksiya unumini (%) aniqlang.

- A) 50
- B) 75
- C) 25
- D) 40

18. 40 g natriy sulfat necha gramm suvda eritilgan-da 25 % li eritma hosil bo'ladi?

- A) 160
- B) 120
- C) 80
- D) 200

19. Mol nisbati 2:4:1 bo'lgan Al, Cu va Ag dan iborat aralashma xlorid kislota eritmasida eritilganda olingan gaz(lar) hajmi (l, n.sh.) xuddi shunday miqdordagi aralashmaning konsentrlangan (mo'l) nitrat kislota bilan ishlanganda olingan gaz(lar) hajmidan 6,72 l (n.sh.) ga kam bo'ldi. Dastlabki aralashmadagi aluminiyning massasini (g) aniqlang.

- A) 2,7
- B) 5,4
- C) 27
- D) 10,8

20. 0,6 mol Cr²⁺ ioni necha dona (NA) elektronni biriktirib Cr³⁺ ioniga aylanadi?

- A) 3,6•NA
- B) 2•NA
- C) 1,8•NA
- D) 1•NA

Kimyo — 50 ta test savoli

Javoblari va izohlari bilan · DTM tayyorgarligi · testmakon.uz · 25.08.2026

21. Propan va neon gazlarini aralashtirib, massasi 304 g bo'lgan gazlar aralashmasi hosil qilindi. Agar shu gazlar aralashmasining o'rtacha molyar massasi 38 g/mol bo'lsa, undagi propanning massasini (g) aniqlang.

- A) 40.
- B) 264.
- C) 80.
- D) 220.

22. Propan, propen va vodorod aralashtirilib hajmi 70 litr (n.sh.) bo'lgan gazlar aralashmasi hosil qilindi. Shu gazlar aralashmasi katalizator ishtirokida qizdirilganda hajmi 60 litr (n.sh.) bo'lgan yangi gazlar aralashmasi hosil bo'ldi. Agar yangi gazlar aralashmasi yetarlicha kislorodda yondirilsa o'rtacha molekulyar massasi 27,75 g/mol bo'lgan karbonat angidrid va suv bug'i aralashmasi hosil bo'ldi. Dastlabki aralashmadagi propanning hajmini (litr, n.sh.) toping.

- A) 15.
- B) 20.
- C) 10.
- D) 30.

23. CaBr_2 ning massa ulushi 60 % bo'lgan suvli eritmaning zichligi 1,2 g/ml bo'lsa, shu eritmaning molyar konsentratsiyasini (mol/l) aniqlang.

- A) 2,0.
- B) 3,6.
- C) 4,8.
- D) 2,4.

24. Natriy karbonat va kalsiy karbonat aralashmasi qizdirilganda aralashma massasi 26,4 grammga kamaydi. Hosil bo'lgan aralashma qizdirilganda uning massasi o'zgarmasligi ma'lum. Agar dastlabki aralashmani suvli idishga solib, hosil bo'lgan cho'kma ustidagi eritma orqali ko'p miqdorda karbonat angidrid gazi o'tkazilsa, massalarining yig'indisi 164,4 g bo'lgan nordon tuzlar hosil bo'lishi ma'lum. Dastlabki aralashmadagi natriy karbonat (a) va kalsiy karbonat (b) massalarini aniqlang.

- A) – 42,4 g; b – 40 g.
- B) – 42,4 g; b – 60 g.
- C) – 84,8 g; b – 40 g.
- D) – 84,8 g; b – 60 g.

25. Kalsiy karbonat va natriy karbonat aralashmasi qizdirilganda 33,6 litr (n.sh.) karbonat angidrid ajralib chiqib, massasi 296 g bo'lgan ikki modda aralashmasi hosil bo'ldi. Dastlabki aralashmadagi metall karbonatlarining miqdorlari (mol) nisbatini aniqlang.

- A) 3:5.
- B) 3:4.
- C) 2:1.
- D) 1:1.

Kimyo — 50 ta test savoli

Javoblari va izohlari bilan · DTM tayyorgarligi · testmakon.uz · 25.08.2026

26. Quyidagilar ichidan to'g'risini toping. Quyidagi kimyoviy jarayonda $2\text{Na} + \text{O}_2 \rightarrow \text{Na}_2\text{O}_2$

- A) Kislorod elektron beradi
- B) Natriy oksidlanadi
- C) Natriy elektron qabul qiladi
- D) Kislorod qaytariladi

27. H—E birikmada element o'rnida F, Cl, Br, I qatorida bog' uzunligi va bog' energiyasi qanday o'zgaradi?

- A) kamayadi, kamayadi
- B) ortadi, ortadi
- C) ortadi, kamayadi
- D) kamayadi, ortadi

28. Quyidagi reaksiya tenglamasida $n=3$ bo'lsa, qaytaruvchi yo'qotgan elektronlar sonini aniqlang. $\text{C}_n\text{H}_{2n+2} + \text{O}_2 \rightarrow \text{CO}_2 + \text{H}_2\text{O}$

- A) 24
- B) 20
- C) 4
- D) 18

29. Sulfat kislotaning 800 ml 36 % li ($\rho=1,35$ g/ml) eritmasiga 20 % li oleumdan necha gramm qo'shilganda erigan modda konsentratsiyasi 14,5 % ga ortadi?

- A) 180
- B) 290
- C) 360
- D) 220

30. Quyidagilar ichidan to'g'risini toping. Ushbu $2\text{Na} + \text{O}_2 \rightarrow \text{Na}_2\text{O}_2$ kimyoviy jarayonda ...

- A) Kislorod elektron beradi
- B) Natriy oksidlanadi
- C) Natriy elektron qabul qiladi
- D) Kislorod qaytariladi

31. Ammoniy nitrit parchalanish reaksiya oksidlanish-qaytarilish reaksiyasining qaysi turiga mansub?

- A) molekulararo
- B) disproporsiyalanish
- C) ichki molekulyar
- D) sinproporsiyalanish

32. 10°C da 32 sekundda tugaydigan reaksiya temperatura -10°C gacha o'zgartirilganda necha sekundda tugaydi? ($\gamma = 2$)

- A) 64
- B) 128
- C) 256
- D) 32

Kimyo — 50 ta test savoli

Javoblari va izohlari bilan · DTM tayyorgarligi · testmakon.uz · 25.08.2026

33. Ammiak molekulasida tarkibidagi gibrid orbitallarda nechta elektron harakatlanadi?

- A) 8
- B) 5
- C) 3
- D) 4

34. pH qiymati 2 ga teng bo'lgan 5 litr eritmaga necha litr suv qo'shilganda eritma pH qiymati 3 ga teng bo'ladi?

- A) 95
- B) 50
- C) 45
- D) 5

35. Doimiy tok manbaiga ketma-ket ulangan AgNO_3 , CuSO_4 va AuCl_3 eritmaları orqali 4 soat davomida kuchu 3,35 A bo'lgan tok o'tkazildi. Katodlarda hosil bo'lgan metallarning massalarini (g) aniqlang. (inert elektrod)

- A) 54; 16; 197/6
- B) 10,8; 6,4; 19,7
- C) 108; 32; 197/3
- D) 216; 64; 197

36. Metanga nisbatan metanolning qaynash temperaturasi yuqoriligining asosiy sababi nima?

- A) metanoldagi -OH funksional guruhi vodorod bog' hosil qiladi
- B) metanol suvda erimaydi, metan esa eriydi
- C) C-O bog'i C - C bog'iga nisbatan zaif
- D) metanol kislorod atomiga ega va molekulyar massasi og'ir

37. Tarkibida 0,2 mol rux xlorid va 0,15 mol mis (II)-xlorid bo'lgan eritma orqali 0,3 faradey tok o'tkazilganda anodda (inert elektrod) ajralib chiqqan modda(lar) massasini (g) toping.

- A) 7,1
- B) 10,65
- C) 14,2
- D) 21,3

38. 10°C da 2 sekundda tugaydigan reaksiya temperatura -10°C gacha o'zgartirilganda necha sekundda tugaydi? ($\gamma = 4$)

- A) 16
- B) 8
- C) 64
- D) 32

39. 0,25 mol Me_2YO_4 dissotsatsiyaga uchraganda elektronlar soni $4 \cdot \text{NA}$ bo'lgan kation va $10 \cdot \text{NA}$ bo'lgan anion hosil bo'ldi. Me_2YO_4 ni molyar massasini (g/mol) aniqlang. ($\alpha=80\%$)

- A) 110
- B) 142
- C) 256
- D) 174

Kimyo — 50 ta test savoli

Javoblari va izohlari bilan · DTM tayyorgarligi · testmakon.uz · 25.08.2026

40. Teng moqdorda (mol) olingan etil spirti va etilenglikol tarkibidagi vodorod atomlari sonlari nisbatini toping.

- A) 1:2
- B) 1:3
- C) 2:3
- D) 1:1

41. Quyidagi termokimyoviy reaksiya tenglamasi berilgan: $2\text{H}_2(\text{g}) + \text{O}_2(\text{g}) = 2\text{H}_2\text{O}(\text{s}) + 572 \text{ kJ}$. 3,0 g vodorodni mo'l miqdordagi kislorod bilan reaksiyasida ajraladigan issiqlik miqdorini aniqlang.

- A) 215
- B) 878
- C) 630
- D) 429

42. Agar reaksiya natijasida cho'kma hosil bo'lsa va gaz ajralib chiqsa dastlabki A va B moddarni toping.

- A) natriy sulfid va alyuminiy
- B) bariy xlorid va natriy sulfat
- C) natriy karbonat va xlorid kislota
- D) kumush nitrat va natriy fosfat

43. 0,001 mol/l konsentratsiyali o'yuvchi natriy eritmasining pH ko'rsatkichini aniqlang. ($\alpha=100\%$)

- A) 3
- B) 9
- C) 11
- D) 7

44. Kimyoviy reaksiya tezligi 10°C da 2 mol/l·min ga teng bo'lgan reaksiyaning temperatura koeffitsiyenti 2 ga teng. Shu reaksiyaning temperaturasi 40°C gacha oshirilsa, reaksiya tezligi (mol/l·min) nechaga teng bo'ladi?

- A) 8
- B) 64
- C) 16
- D) 256

45. $\frac{1}{4}$ mol C oksidlanib CO_2 hosil qilganda 103 kJ energiya ajralib chiqadi. Ushbu reaksiyaga asoslanib 4 mol C oksidlanganda qancha energiya (kJ) ajralib chiqishini hisoblang.

- A) 824
- B) 412
- C) 1648
- D) 206

46. Kimyoviy hodisalarga kirmaydigan jarayonlarni ko'rsating.

- A) yog'ning sovuqda qotishi
- B) pomidor sharbatining bijg'ishi
- C) ohakning so'ndirilishi
- D) benzinning yonishi

Kimyo — 50 ta test savoli

Javoblari va izohlari bilan · DTM tayyorgarligi · testmakon.uz · 25.08.2026

47. $A(g) + B(g) = AB(g)$ reaksiyada A ning boshlang'ich konsentratsiyasi 1,2 mol/l bo'lib, AB dan 0,4 mol/l hosil bo'lganda muvozanat qaror topdi ($K_m = 2$) . Barcha moddalarning muvozanat holatdagi konsentratsiyalari (mol/l) yig'indisini hisoblang.

- A) 1,35
- B) 1,45
- C) 1,25
- D) 1,55

48. o'zgarishlar sxemasida birinchi reaksiya o'rin olish, ikkinchisi almashinish reaksiyasi bo'lsa, X va Y reagentlarni aniqlang.

- A) mis (II) -xlorid va kaliy sulfid
- B) xlorid kislota va mis (II) -sulfid
- C) magniy xlorid va simob (II) -sulfid
- D) xlor va bariy sulfid

49. Magniy va magniy karbonatdan iborat 90 g aralashma ochiq havoda qizdirildi. Aralashma massasi qanday o'zgaradi. ($Mg \omega = 8/15$)

- A) 4 gr ga kamayadi
- B) 10 gr ga ortadi
- C) 8 gr ga ortadi
- D) 12 gr ga kamayadi

50. Teng massada olingan CO va O₂ aralashtirildi. Reaksiya natijasida 44 g CO₂ hosil bo'lsa, reaksiyada ortib qolgan modda massasini (g) aniqlang.

- A) 7,2
- B) 12
- C) 10
- D) 9,6

Javoblar kaliti

Kimyo · 50 savol

1-C 2-D 3-C 4-D 5-D 6-D 7-C 8-C 9-C 10-B
11-D 12-D 13-D 14-A 15-D 16-D 17-D 18-B 19-A 20-A
21-B 22-B 23-B 24-B 25-B 26-B 27-C 28-B 29-B 30-B
31-C 32-B 33-A 34-C 35-A 36-A 37-B 38-D 39-B 40-D
41-D 42-C 43-C 44-C 45-C 46-A 47-B 48-B 49-B 50-B

To'liq bank, vaqt rejimi va xatolar tahlili: testmakon.uz/tests/practice/kimyo/